

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA ADAPTIV TA'LIMNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Alisher Sidiqov O'ktamjonovich,

Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida adaptiv ta'limning pedagogik va psixologik asoslari hamda uning ingliz tili iboralarini o'qitish jarayonidagi samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot nazariy va empirik yondashuvlar uyg'unligiga asoslangan. Adabiyotlar sharhida adaptiv ta'lim tushunchasi, talabalarning individual xususiyatlari, o'quv uslublari, moslashuvchan o'qitish strategiyalari hamda motivatsion omillar yoritildi. Tadqiqot jarayonida filologiya yo'nalishining 1-bosqich talabalari ishtirokida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Kalit so'zlar: adaptiv ta'lim, talaba motivatsiyasi, o'quv jarayonidagi faollik, kognitiv xususiyatlar, ingliz tili iboralarini, adaptiv topshiriqlar, differensial ta'lim, ta'lim texnologiyalari, kommunikativ kompetensiya, zamonaviy ta'lim, o'qitish samaradorligi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические и психологические основы адаптивного обучения в современной системе образования, а также анализируется его эффективность в обучении английским идиомам с использованием адаптивных заданий. Исследование основано на сочетании теоретических и эмпирических методов. В обзоре литературы раскрываются понятие адаптивного обучения, индивидуальные особенности обучающихся, стили обучения, адаптивные стратегии преподавания и мотивационные факторы. В ходе исследования был проведён педагогический эксперимент с участием студентов первого курса филологического направления.

Ключевые слова: адаптивное обучение, мотивация учащихся, активность в процессе обучения, когнитивные характеристики, английские фразы, адаптивные задания, дифференцированное обучение, образовательные технологии, коммуникативная компетентность, современное образование, эффективность преподавания.

Abstract. This study examines the pedagogical and psychological foundations of adaptive learning in modern education and analyzes its effectiveness in teaching English idioms through adaptive tasks. The research is based on both theoretical and empirical approaches. The literature review explores the concept of adaptive learning, individual learner characteristics, learning styles, adaptive teaching strategies, and motivational factors. A pedagogical experiment was conducted with first-year philology students divided into control and experimental groups.

Keywords: adaptive learning, student motivation, activity in the learning process, cognitive characteristics, English phrases, adaptive tasks, differentiated learning, educational technologies, communicative competence, modern education, teaching effectiveness.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi globallashtirish, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda bilimga asoslangan jamiyat shakllanishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda ta'lim jarayonini takomillashtirish, ayniqsa o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'rganish sur'atlarini hisobga olgan holda tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli so'nggi yillarda ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilgan **adaptiv ta'lim** konsepsiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Adaptiv ta'lim o'quv jarayonini har bir talabaning individual bilim darajasi, o'rganish uslubi va ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan pedagogik yondashuv bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlarda adaptiv ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning oldingi bilimlari, ko'nikmalari hamda o'rganish xususiyatlarini hisobga

olgan holda individual o'quv trayektoriyasini shakllantirish imkonini berishi ta'kidlanadi. Bunday tizimlar o'quv materiallarini shaxsiylashtirilgan tarzda taqdim etish orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi va o'quvchilarga o'zlariga qulay tezlikda bilim olish imkonini yaratadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda adaptiv ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi o'quv jarayonini an'anaviy "o'rtacha talaba"ga yo'naltirilgan modeldan voz kechishga va individual o'quv yo'nalishlarini shakllantirishga xizmat qilishi qayd etiladi. Bunda ta'lim jarayonida talabanning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish, uning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish hamda o'quv muhitida qulay psixologik sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ta'limni individuallashtirish texnologiyalari oliy ta'lim muassasalarida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini oshirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda o'quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va moslashuvchan o'qitish strategiyalaridan foydalanish zaruriyati ortib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ingliz tili iboralarini adaptiv topshiriqlar asosida o'qitish metodikasining samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda nazariy va empirik tadqiqot metodlari uyg'unligi qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, anketa so'rovlari, diagnostik testlar, pedagogik tajriba-sinov ishlari hamda matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar o'quv jarayonida adaptiv topshiriqlar tizimini joriy etish va uning samaradorligini ilmiy jihatdan baholash imkonini berdi.

Tadqiqot pedagogik tajriba-sinov usuliga asoslangan bo'lib, unda ingliz tili iboralarini o'qitishda adaptiv metodika va an'anaviy o'qitish usullarining samaradorligi qiyosiy tahlil qilindi. Tajriba jarayonida talabalar nazorat guruhi va tajriba guruhlariga ajratildi hamda har ikki guruhda o'qitish jarayoni turli metodik yondashuvlar asosida tashkil etildi.

Nazorat guruhida ingliz tili iboralarini an'anaviy metodlar asosida o'qitildi, tajriba guruhida esa adaptiv topshiriqlar tizimi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar olib borildi. Bu yondashuv adaptiv metodikaning talabalarning idiomatik kompetensiyasiga ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Tahlillar va natijalar. Adaptiv ta'lim tizimlarining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri o'quvchilarning motivatsiyasi, emosional holati hamda o'quv jarayonidagi faol ishtirokidir (engagement). Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirish nafaqat bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshiradi, balki talabalarning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini ham sezilarli darajada kuchaytiradi. Adaptiv o'quv muhirlari o'quvchilarning individual xususiyatlari, bilim darajasi va o'rganish tezligiga

mos ravishda o'quv materiallarini taqdim etish orqali ularning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasini oshiradi.

Pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan motivatsiya o'quv jarayonining muhim komponenti hisoblanadi. Motivatsiya o'quvchilarning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishi, maqsadga intilishi va bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyojini belgilaydi. Adaptiv ta'lim tizimlarida o'quv materiallari talabalarning bilim darajasi va ehtiyojlariga moslashtirilgani sababli, ular o'zlarini o'quv jarayonining faol subyekt sifatida his qiladilar. Bu esa o'quv jarayonida mustaqillik, mas'uliyat va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, adaptiv ta'lim muhitlari o'quvchilarning akademik emosiyalariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Akademik emosiyalar deganda o'quv jarayonida yuzaga keladigan qiziqish, ishonch, xavotir, muvaffaqiyat hissi kabi emosional holatlar tushuniladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv materiallari o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan taqdirda, ular o'quv jarayonida o'zlarini qulay his qiladilar va bilim olishga nisbatan ijobiy emosional munosabat shakllanadi. Bu esa o'z navbatida o'quv jarayonida yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.

Bundan tashqari, adaptiv ta'lim o'quvchilarning o'quv jarayonidagi faol ishtirokini (engagement) ham oshiradi. O'quvchilarning faol ishtiroki ularning dars jarayonida faolligi, topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqishi hamda o'quv faoliyatiga jalb etilish darajasi bilan belgilanadi. Adaptiv ta'lim tizimlari o'quvchilarning bilim darajasini doimiy ravishda tahlil qilib boradi va shunga mos ravishda yangi topshiriqlarni taklif etadi. Natijada o'quvchilar o'z bilim darajasiga mos keladigan topshiriqlarni bajarish orqali o'quv jarayonida faol ishtirok etadilar.

Shuningdek, adaptiv o'qitish yondashuvi turli o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini moslashtirish imkonini beradi. Bu esa turli bilim darajasi va o'rganish qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchilarning o'quv jarayoniga teng darajada jalb qilinishini ta'minlaydi. Shu sababli adaptiv ta'lim muhitlari o'quvchilarning motivatsiyasi, emosional barqarorligi va o'quv jarayonidagi ishtirokini oshirishda muhim pedagogik vosita sifatida qaraladi.

Quyidagi jadval adaptiv ta'limning psixologik omillar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Psixologik omil	Adaptiv ta'limdagi roli
Motivatsiya	O'quv materiallarining individual ehtiyojlarga moslashuvi ichki motivatsiyani oshiradi
Akademik emosiyalar	O'quv jarayonida ijobiy emosional muhit yaratadi
Engagement (faol ishtirok)	O'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadi

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili adaptiv ta'lim tizimlari ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning o'rganish uslublari va kognitiv xususiyatlarini hisobga olish hamda ularning motivatsiyasi va emosional ishtirokini oshirishda muhim

pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda adaptiv ta'limning pedagogik va psixologik asoslarini kompleks tarzda o'rganishga yetarli e'tibor qaratilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu jihatlarni tahlil qilish va zamonaviy ta'lim tizimida adaptiv ta'limning ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.

Tajriba ishtirokchilari. Pedagogik tajriba filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan 1-bosqich talabalari ishtirokida tashkil etildi. Tadqiqotda ikki guruh qatnashdi:

Guruh	Talabalar soni
Nazorat guruhi	54 nafar
Tajriba guruhi	53 nafar

Nazorat guruhida o'qitish jarayoni an'anaviy metodika asosida olib borildi, tajriba guruhida esa ingliz tili iboralarini o'qitishda adaptiv topshiriqlar tizimi qo'llanildi.

Tadqiqot bosqichlari:

Tadqiqot uch asosiy bosqichda amalga oshirildi:

1. aniqlovchi-ta'kidlovchi bosqich
2. shakllantiruvchi bosqich
3. yakunlovchi bosqich

Aniqlovchi-ta'kidlovchi bosqich

Aniqlovchi bosqich 2025-yil sentyabr-oktyabr oylarida amalga oshirildi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi talabalarning ingliz tili iboralarini o'zlashtirish darajasini aniqlash hamda mavjud metodik muammolarni tahlil qilishdan iborat bo'ldi.

Mazkur bosqichda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- ingliz tili iboralarini o'qitishga oid o'quv dasturlari va metodik materiallar tahlil qilindi;
- talabalarning idiomatik kompetensiya darajasi diagnostik testlar orqali aniqlab olindi;
- talabalarning iboralarni tushunish jarayonidagi qiyinchiliklarini aniqlash uchun anketa so'rovlari o'tkazildi;
- o'qituvchilar va talabalar bilan suhbatlar tashkil etildi.

Diagnostik so'rovnomalarda talabalarning iboralarni tushunishdagi qiyinchiliklari, ularni o'rganish strategiyalari hamda o'quv jarayoniga bo'lgan munosabatlari o'rganildi. Savollar asosan quyidagi jihatlarni aniqlashga qaratildi:

- iboralarning ko'chma ma'nosini tushunishdagi qiyinchiliklar;
- iboralarni kontekst asosida anglash;
- iboralarni nutqda qo'llashdagi muammolar;
- iboralarni yodda saqlash strategiyalari.

Mazkur diagnostik ma'lumotlar keyingi bosqichda adaptiv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Shakllantiruvchi bosqich:

Shakllantiruvchi bosqich 2025-yil noyabr–dekabr oylarida amalga oshirildi. Ushbu bosqichda tajriba guruhlarida ingliz tili iboralarini o‘qitishda adaptiv topshiriqlar tizimi joriy etildi.

Mashg‘ulotlar “Mastering English Idioms through Context” nomli o‘quv qo‘llanmasi asosida tashkil etildi. Ushbu qo‘llanma 24 soatlik amaliy mashg‘ulotlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, talabalarning individual o‘zlashtirish sur‘ati va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzildi.

Adaptiv topshiriqlar quyidagi turlarni o‘z ichiga oldi:

- ko‘p tanlovli testlar (MCQ);
- kontekstual to‘ldirish mashqlari;
- izohli savollar;
- dialog va vaziyatli topshiriqlar.

Mashg‘ulotlar davomida bir qator zamonaviy pedagogik metodlar qo‘llanildi:

- kontekstual o‘qitish metodi;
- brainstorming (aqliy hujum);
- case-study metodi;
- INSERT strategiyasi;
- dynamic feedback sessiyalari.

Mazkur metodlar talabalarning ingliz tili iboralarini kontekst asosida tushunish hamda ularni kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratildi.

Yakunlovchi bosqich:

Yakunlovchi bosqich 2026-yil yanvar–mart oylarida amalga oshirildi. Ushbu bosqichda tajriba natijalari yig‘ildi va tahlil qilindi.

Talabalarning ingliz tili iboralarini o‘zlashtirish darajasi diagnostik testlar orqali baholandi. Baholash jarayoni 60 ballik tizim asosida amalga oshirilib, talabalarning idiomatik kompetensiyasi quyidagi darajalar bo‘yicha aniqlanadi:

- yuqori daraja
- o‘rta daraja
- past daraja
- juda past daraja

Yig‘ilgan ma‘lumotlar matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilindi hamda tajriba va nazorat guruhlarini natijalari o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi adaptiv topshiriqlar tizimining ingliz tili iboralarini o‘qitish jarayonidagi samaradorligini aniqlashga qaratilgan kompleks pedagogik tajriba-sinov modeliga asoslandi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini ta‘minlashga xizmat qildi.

Mazkur tadqiqotda ingliz tili iboralarini adaptiv topshiriqlar asosida o'qitish metodikasining samaradorligi pedagogik tajriba-sinov natijalari asosida baholandi. Natijalar nazorat guruhi va tajriba guruhining yakuniy baholash ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish orqali aniqlanadi. Baholash jarayonida talabalarning ingliz tili iboralarini tushunish, kontekst asosida qo'llash hamda kommunikativ nutqda ishlata olish ko'nikmalari hisobga olindi.

Tajriba va nazorat guruhlar natijalari

Pedagogik tajriba yakunida nazorat guruhi va tajriba guruhidagi talabalarning baholari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval 1. Tajriba va nazorat guruhlar natijalari

Baho	Nazorat guruhi (54 nafar)	Foiz (%)	Tajriba guruhi (53 nafar)	Foiz (%)
5	7	13%	10	19%
4	21	39%	33	62%
3	26	48%	10	19%
Jami	54	100%	53	100%

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida yuqori natijalar ulushi sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Nazorat guruhida 5 va 4 baho olgan talabalar ulushi 52%ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba guruhida bu ko'rsatkich 81%ga yetgan.

Natijalar taqsimoti grafigi

Grafik 1. Nazorat guruhi natijalari



Grafik 2. Tajriba guruhi natijalari



Grafiklardan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida yuqori natijalar ulushi ancha yuqori bo'lib, past natijalar ulushi esa sezilarli darajada kamaygan.

Guruhlar o'rtasidagi qiyosiy natijalar

Quyidagi jadvalda nazorat va tajriba guruhlar natijalari qiyosiy ko'rinishda keltirilgan.

Jadval 2. Natijalar qiyosiy tahlili

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Talabalar soni	54	53
Yuqori natija (5-4 baho)	28 (52%)	43 (81%)
O'rta natija (3 baho)	26 (48%)	10 (19%)

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida yuqori natija ko‘rsatgan talabalar ulushi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan.

Natijalar o‘zgarishi grafigi

Yuqori natija (5–4)



Natijalar bo‘yicha umumiy tahlil

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, adaptiv topshiriqlar asosida tashkil etilgan o‘qitish metodikasi talabalarning ingliz tili iboralarini o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirgan. Tajriba guruhida yuqori baholar ulushining ortishi hamda past natijalar ulushining kamayishi adaptiv metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tajriba jarayonida talabalarning iboralarni kontekst asosida tushunish, ularni kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash hamda pragmatik jihatdan to‘g‘ri ishlatish ko‘nikmalarida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Bu esa adaptiv topshiriqlar tizimi ingliz tili iboralarini o‘qitish jarayonida samarali pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot natijalari zamonaviy ta‘lim tizimida adaptiv ta‘lim texnologiyalarining pedagogik va psixologik jihatdan samarali ekanligini tasdiqlaydi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, adaptiv topshiriqlar asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarning ingliz tili iboralarini o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirgan. Tajriba guruhida yuqori natijalar ulushining ortishi va past natijalar ulushining kamayishi adaptiv o‘qitish metodikasining samaradorligini ko‘rsatadi. Bu holat adaptiv ta‘lim tizimlari o‘quvchilarning individual xususiyatlari va o‘rganish ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilganda ta‘lim samaradorligi oshishini ta‘kidlagan ilmiy tadqiqotlar bilan hamohangdir (Kinshuk et al., 2013; Chen, 2023).

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, adaptiv topshiriqlar tizimi talabalarning idiomatik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tajriba jarayonida talabalar iboralarni kontekst asosida tushunish, ularning ko‘chma ma‘nosini anglash hamda kommunikativ nutqda qo‘llash ko‘nikmalarini ancha samarali egallaganliklari kuzatildi. Bu esa ingliz tili iboralarini o‘qitishda kontekstual va kommunikativ yondashuvning muhimligini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar adaptiv ta‘lim muhitlari o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam berishini ta‘kidlagan tadqiqotchilar fikrlari bilan ham mos keladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida adaptiv ta‘lim tizimlarining psixologik jihatlari ham muhim rol o‘ynashi aniqlandi. Tajriba guruhidagi talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligi, qiziqishi va motivatsiyasi nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘lganligi kuzatildi.

Bu holat adaptiv o'quv muhitlari o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirish hamda o'quv jarayonidagi faol ishtirokini kuchaytirishini ko'rsatgan ilmiy tadqiqotlar bilan hamohangdir. O'quv materiallarining talabalarning bilim darajasi va ehtiyojlariga moslashtirilishi ularning o'quv jarayonida o'zlarini faol subyekt sifatida his qilishlariga yordam beradi.

Adaptiv ta'lim yondashuvi differensial ta'lim tamoyillarini amaliy jihatdan samarali amalga oshirish imkonini berishi ham ushbu tadqiqot natijalarida namoyon bo'ldi. Tajriba guruhida qo'llanilgan turli darajadagi topshiriqlar talabalarning individual o'zlashtirish darajasi va o'rganish tezligiga mos ravishda tashkil etilgani sababli, har bir talaba o'z imkoniyatlariga mos ravishda bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa adaptiv ta'lim tizimlari turli bilim darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar mavjud bo'lgan guruhlarda ayniqsa samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Biroq tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Tadqiqot faqat bir oliy ta'lim muassasasining birinchi bosqich talabalari ishtirokida o'tkazilgan bo'lib, natijalar barcha ta'lim muassasalari uchun umumlashtirilishi uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarur. Shuningdek, tadqiqot davomiyligi nisbatan qisqa bo'lganligi sababli adaptiv ta'lim metodikasining uzoq muddatli ta'sirini aniqlash uchun kengroq miqyosdagi tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari adaptiv ta'lim yondashuvi ingliz tili iboralarini o'qitish jarayonida samarali pedagogik strategiya ekanligini ko'rsatadi. Adaptiv topshiriqlar tizimi o'quv jarayonini individuallashtirish, talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirish hamda ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida adaptiv ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ingliz tili iboralarini o'qitishda adaptiv topshiriqlar tizimining samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, olib borilgan nazariy tahlillar hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari ushbu metodikaning ta'lim jarayonida muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida ingliz tili iboralarini o'qitish jarayonida talabalarning individual o'rganish sur'ati, kognitiv xususiyatlari va ta'limiy ehtiyojlarini hisobga olish muhim omil ekanligi aniqlandi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, adaptiv topshiriqlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning idiomatik kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tajriba guruhida yuqori baholar ulushining ortishi hamda past natijalar ulushining kamayishi adaptiv o'qitish metodikasining samaradorligini tasdiqladi. Bu esa talabalarning ingliz tili iboralarini nafaqat yodlab olish, balki ularni kontekstual va kommunikativ jihatdan to'g'ri qo'llash ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam berganini ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan metodik model ingliz tili iboralarini o'qitishda kontekstual yondashuv, interfaol metodlar hamda differensial topshiriqlar tizimining

integratsiyasiga asoslanadi. Mazkur yondashuv talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda o'quv materiallarini chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, adaptiv topshiriqlar tizimi talabalarning individual o'rganish xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilgani sababli ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

- ingliz tili iboralarini o'qitishda adaptiv topshiriqlar tizimidan keng foydalanish;
- iboralarni kontekstual va kommunikativ vaziyatlar asosida o'rgatish;
- talabalarning individual o'rganish xususiyatlarini hisobga olgan differensial topshiriqlarni qo'llash;
- ingliz tili darslarida interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish.

Kelgusida ushbu tadqiqot yo'nalishini yanada rivojlantirish maqsadida adaptiv ta'lim texnologiyalarini raqamli ta'lim platformalari bilan integratsiyalash, shuningdek ingliz tilining boshqa leksik birliklarini o'qitishda ham adaptiv metodikaning samaradorligini o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

References:

1. Abe, H., 2023. *Improving learning experience on the adaptive learning platforms through learning analytics and student feedback*. PhD thesis. The University of Queensland.
2. Alimova, N.R., 2023. *Nofilologik yo'nalish talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish texnologiyalarini takomillashtirish*. PhD dissertation abstract. Buxoro davlat universiteti.
3. Alrashedi, N., 2020. Adaptive learning to enhance students understanding in learning technology experience. *Technium Social Sciences Journal*, 9, pp.32–42.
4. Alshammari, M.T., 2016. *Adaptation based on learning style and knowledge level in e-learning systems*. PhD thesis. University of Birmingham.
5. Athanases, S.Z., Bennett, L.H. and Wahleithner, J.M., 2013. Adaptive teaching for English language arts: Following the pathway of classroom data in preservice teacher inquiry. *Journal of Literacy Research*.
6. Brown, E., 2007. *The use of learning styles in adaptive hypermedia*. PhD thesis. University of Nottingham.
7. Chen, X., 2023. Exploring adaptive learning of English as a foreign language from the perspective of semiotics. *SHS Web of Conferences*, 179, 02002. <https://doi.org/10.1051/shsconf/202317902002>.
8. Cohen, L., Manion, L. and Morrison, K., 2018. *Research Methods in Education*. 8th ed. London: Routledge.
9. Dennis, K.S. and Osborne, D., 2011. When students lack English fluency: Adaptive teaching. *British Association for International and Comparative Education Conference*, Oxford.
10. Devilly, G., 2021. *Adaptive learning environments and student motivation in digital education*.
11. Kinshuk, Chen, N.S., Graf, S. and Hwang, G.J., 2013. Adaptive learning systems. In: *Encyclopedia of Life Support Systems (EOLSS)*. Paris: UNESCO.
12. Mohova, O.L., Bogovskaya, I.V., Malykhina, I.A. and Tsikolenko, L.I., 2024. Using adaptive educational programs in teaching English to students of various professional fields in non-linguistic universities. *Education Management Review*, 14(9-1), pp.142–149. <https://doi.org/10.25726/y7793-9468-3165-r>.
- van Leusen, P., Cunningham, J. and Johnson, D., 2020. Designing and teaching adaptive+active learning effectively. *Current Issues in Emerging eLearning*.